

TARIX FANIDA TAHLILY FIKRLASH KO'NIKMLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Bauetdinov Rauaj Ayapbergenovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Qoraqalpog'iston Respublikasi pedagogic mahorat markazi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tarix fanida tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil etilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tarix ta'limida manbalar bilan ishlash, muammoli ta'lim, debat va keys-stadi usullari tahliliy fikrlashni shakllantirishda samarali ekanligi asoslangan. Shuningdek, maqolada aniq tarixiy misollar orqali ushbu usullarning amaliy qo'llanilishi ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *tahliliy fikrlash, tarix ta'limi, tanqidiy fikrlash, interfaol metodlar, manba tahlili, muammoli ta'lim, debat, keys-stadi.*

Annotation: *This article analyzes the theoretical and practical foundations of developing analytical thinking skills in history education. The scientific views of foreign and local researchers are comparatively examined. The study concludes that working with historical sources, problem-based learning, debates, and case-study methods are effective tools for developing analytical thinking. Practical implementation of these methods is demonstrated through specific historical examples.*

Keywords: *analytical thinking, history education, critical thinking, interactive methods, source analysis, problem-based learning, debate, case study.*

Zamonaviy ta'lim tizimida bilimlarni mexanik o'zlashtirishdan ko'ra, ularni tahlil qilish va amaliy qo'llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tarix fanida tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi, chunki tarix fani o'quvchilardan faqat faktlarni yodlashni emas, balki ularni tahlil qilish, turli nuqtayi nazarlarni solishtirish va mustaqil xulosa chiqarishni talab etadi.

Globalashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan sharoitda o'quvchilar turli manbalardan axborot olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa ularda axborotni tanqidiy baholash va saralash ko'nikmalarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu nuqtayi nazardan, tarix ta'limida tahliliy fikrlashni rivojlantirish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy ahamiyatga ham egadir.

Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishni talab etadi [3, s. 67]. Demak, tarix fanida tahliliy fikrlashni shakllantirish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Xorijiy olimlar tarix ta'limida tahliliy fikrlashni rivojlantirishga tizimli yondashuv taklif etganlar.

P. Siksas ta'kidlaydiki, tarixiy bilimni tushunish va tahlil qilish ustuvordir. Tadqiqotchining asoslasisha, Fransiya inqilobi misolida turli manbalardan foydalanish, voqeaning ahamiyatini baholash va ijtimoiy guruhlar nuqtayi nazarini tahlil qilish o'quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi [6, s. 88–92].

S. Wineburg ko'rsatadiki, ko'pchilik o'quvchilar manbalarni tanqidiy baholashda qiyinchilikka duch keladi. Shu sababli ta'limda “manbaga shubha bilan qarash” prinsipini joriy etish samarali usul hisoblanadi [9, s. 134–138].

D. Halpern nazariyasi asosida savol berish texnologiyasi o'quvchilarni mustaqil tahlilga yo'naltiradi. Tadqiqotchi fikricha, ma'lumotning manbasi va muallif maqsadi haqidagi savollar o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini mustahkamlaydi [11, s. 52–58].

J. Bruner esa, “kashf etish orqali o'rganish” metodi, faktlarni yodlashdan ko'ra tahlil qilish va sabab-oqibatni anglash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi deb xisoblaydi [12, s. 73–77].

Lev Vygotsky esa, ijtimoiy muhit va hamkorlik o'quvchilarning fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega deb ta'kidlaydi [2, s. 45–49].

Benjamin Bloom tahlil, sintez va baholash kabi yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini belgilab, tarix darslarida savollar tizimini to'g'ri qurish orqali tahliliy fikrlashni shakllantirish mumkinligini asoslaydi [4, s. 105–110].

John Hattie ta'kidlashisha, faol o'qitish va fikrlashga yo'naltirilgan metodlar ta'lim samaradorligini oshirib, tahliliy fikrlashni rivojlantirishda samaralidir [5, s. 215–220].

Mahalliy olimlar ham tarix ta'limida tahliliy fikrlashni rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydilar. Ularning tadqiqotlari pedagogikada samarali interaktiv metodlar va tahliliy usullarni qo'llashning ahamiyatini asoslaydi.

N. Karimov interfaol metodlar, jumladan “aqliy hujum” va klaster usullari orqali o'quvchilarning fikrlash faolligini oshirish mumkinligini asoslaydi. Uning fikriga ko'ra, bu usullar o'quvchilarni bir vaqtda ko'plab fikrlarni tahlil qilish va ularni mantiqiy tartibga solishga yo'naltiradi [1, s. 38].

Sh. Sharipov debat texnologiyasini qo'llash orqali o'quvchilarda dalillash, himoya qilish va tahlil qilish ko'nikmalari shakllanishini kursatadi. Masalan, “Temuriylar siyosati markazlashgan boshqaruvni kuchaytirdimi?” mavzusidagi munozarada o'quvchilar turli nuqtayi nazarlarni baholaydi va sabab-oqibatni aniqlaydi [8, s. 53].

A. Yo'ldoshev tarix darslarida manbalar bilan ishlashni asosiy metod sifatida qo'llashni taqidlaydi. Uning fikricha, rasmiy hujjatlar va tarixiy manbalar bilan ishlash o'quvchilarda dalillarga asoslangan xulosa chiqarishni shakllantiradi [10, s. 91].

N. Saidov muammoli ta'lim usuli orqali o'quvchilarni mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish mumkinligini asoslaydi. Uning tadqiqotlari ko'rsatadiki, muammoli savollar va voqealar tahlili o'quvchilarning sabab-oqibatli fikrlashini rivojlantiradi [7, s. 29].

Shu bilan birga, mahalliy tadqiqotchilar ta'kidlaydilarki, tarix darslarida misollarni uzviy va mantiqiy bog'liqlikda taqdim etish muhim ahamiyatga ega. Masalan, davlat shakllanishi jarayoni, uning rivojlanishi va tanazzul sabablari ketma-ketlikda o'rganilsa, o'quvchilar nafaqat faktlarni yodlaydi, balki ularning o'zaro bog'liqligini tushunishadi.

Ushbu tadqiqotlar natijasida mahalliy olimlar ta'kidlaydilarki, tarix ta'limida tahliliy fikrlashni shakllantirish uchun interfaol metodlar, debat, manba tahlili va muammoli ta'lim integratsiyasi samarali usullar hisoblanadi.

Tarixiy misollar orqali amaliy qo'llash: tarix fanida tahliliy fikrlashni rivojlantirishda misollarni uzviy va mantiqiy ketma-ketlikda taqdim etish muhim:

Masalan: Иккинчи жаҳон уруши:

1. Dastlab urushning kelib chiqish sabablari o'rganiladi (Versal tizimi, iqtisodiy inqiroz, siyosiy ziddiyatlar).

2. Keyin asosiy frontlar, harbiy strategiyalar va ishtirokchi davlatlar faoliyati tahlil qilinadi.

3. Urush natijalari va uning jahon siyosatiga ta'siri baholanadi.

Manbalar bilan ishlash jarayoni ham izchil tashkil etilishi kerak: avval rasmiy hujjatlar tahlil qilinadi, keyin tarixiy tadqiqotlar bilan solishtiriladi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, tarix ta'limida tahliliy fikrlashni rivojlantirish faol va uzviy metodlar orqali samarali amalga oshiriladi. Manbalar bilan ishlash, muammoli ta'lim, debat va keys-stadi usullari o'quvchilarda mustaqil fikrlash, sabab-oqibatni anglash va umumlashtirish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Tarixiy jarayonlarni bosqichma-bosqich tahlil qilish va misollarni uzviy taqdim etish o'quvchilarning tahliliy fikrlashini mustahkamlaydi. Shu nuqtayi nazardan, tarix darslarida interfaol va tahlilga yo'naltirilgan metodlarni keng qo'llash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов Н. Таълимда интерфаол методлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 2018. – 120 б.
2. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – с. 45–49.
3. Ишмухамедов Р., Йўлдошев М. Таълимда инновацион технологиялар. – Тошкент: Фан, 2017. – 150 б.
4. Bloom B. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 1956. – с. 105–110.
5. Hattie J. Visible Learning. – London: Routledge, 2009. – с. 215–220.
6. Seixas P., Morton T. The Big Six Historical Thinking Concepts. – Toronto: Nelson Education, 2013. – с. 88–92.
7. Саидов Н. Муаммоли таълим технологиялари. – Тошкент: Тафаккур, 2019. – с. 29.
8. Шарипов Ш. Таълимда дебат технологияси. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2020. – с. 53.

9. Wineburg S. Historical Thinking and Other Unnatural Acts. – Philadelphia: Temple University Press, 2001. – с. 134–138.

10. Йўлдошев А. Тарих дарсларида манбалар билан ишлаш. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – с. 91.

11. Halpern D. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. – New York: Psychology Press, 2014. – с. 52–58.

12. Bruner J. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1960. – с. 73–77.